

INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH METODI

Raxmatulloyeva Gulsanam Ulug'bek qizi

BuxDu tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti.

Qodirov Arif Maxmudovich

Ilmiy rahbar. BuxDu tasviriy va amaliy san'at kafedrası professori.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11543553>

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion yondashuv va bu yondashuv asosida talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirish usullari hamda shakllari haqida bir muncha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion yondashuv, mustaqil ta'lim, talabalarni rivojlantirish metodlari

METHOD OF DEVELOPING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS BASED ON INNOVATIVE APPROACH

Abstract. This article provides some information about the innovative approach and the methods and forms of developing independent education of students based on this approach.

Key words: innovative approach, independent education, student development methods

МЕТОД РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА

Аннотация. В данной статье представлены некоторые сведения об инновационном подходе, а также методах и формах развития самостоятельного образования студентов на основе этого подхода.

Ключевые слова: инновационный подход, самостоятельное образование, методы развития студентов

KIRISH

Ta'lim sohasida bo'layotgan har bir o'zgarish jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishiga shubha yo'q. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta'lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Qaysi sohada bo'lmasin bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish – talaba faoliyatining ta'lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o'qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi.

Ta'lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta'lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim.

Mustaqil ta'lim o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada va auditoriyadan tashqarida ijodiy hamda mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo'ljallanganiga qarab bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda kreativlik usullaridan foydalanish juda muhim sanaladi.

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning

tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlari, zehni o'tkirligini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, "kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi".¹

Kreativ yondashuv deganda, ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- asosiy e'tibor ijodiy ishga qaratilishi;
- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddati ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Talabalarining mustaqil ishlari oliy ta'limda ilm olish jarayonining asosiy va muhim tashkil etuvchisi hisoblanadi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda bunga umumiy ta'lim vaqtining yarmidan ko'pi ajratiladi. Fan bo'yicha o'quv maqsadlariga erishish uchun bu ulkan zahira hisoblanadi. Afsuski, amalda undan to'la foydalanilmaydi, ba'zan o'qituvchining e'tiboridan chetda qolib ketadi.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida mustaqil ishni tashkil qilishning juda ko'p usullari ishlab chiqilgan.

Talabalarining mustaqil ta'limini – talabaning o'quv predmetiga aylantiradigan bilish faoliyati, kasbiy rivojlanishda o'z-o'zini boshqarish mexanizmi shakllanadi, o'qituvchi tomonidan bilvosita nazorat qilinib, kasbiy bilim va ko'nikmalarni takomillashtirishga hamda bo'lajak mutaxassisning kasbiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu ta'rifda biz uchun quyidagi xususiyatlar muhim ahamiyatga ega:

- talabalarining bilish faoliyati;
- o'qituvchi tomonidan bilvosita rahbarlik;
- talabalar o'z-o'zini boshqarish mexanizmini shakllantirish;
- kasbiy bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish;
- mutaxassisning kasbiy mahoratini rivojlantirish;
- mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish kompetentsiyalari shakllantirish;

¹ Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. – СПб.: СПГУТД, 2006.

Talabalar mustaqil ta'limini faollashtirish – talabalar mustaqil ta'limining har bir bo'g'inini qamrab oluvchi chora-tadbirlar tizimi: talabalarning ijodiy bilish faoliyati, rahbariyat tomonidan mustaqil ta'limlarni takomillashtirish, mustaqil ta'limlarning faol shakl va usullaridan foydalanish va mutaxassis shaxsining kasbiy sifatlarini takomillashtirishdir.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonlarini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish mumkin.

Mustaqil ishni tashkil qilish bosqichlari

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va uni faollashtirish psixologlar, pedagoglar, hamda uslubshunolar tomonidan pedagogik muammo sifatida muhokama qilinayotgan holatlar ham juda ko'p. Bunday tadqiqotlar ta'lim oluvchilarning o'quv jarayonidagi mustaqil ta'limning didaktik maqsadlarini umumiy ko'rinishda shakllantirishga imkon yaratadi.

Olib borilgan izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy monografiyalar va elektron ta'lim resurslari asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni faollashtirish uchun didaktik ta'minoti boyitiladi. Bunda talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari (motivatsiya, yo'naltirish, jalb etish va tajribalarni boyitish) kengaytiriladi.

Talabalarda mustaqil ishlash metodik kompetentlikni shakllantirishning maqsadi kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonida talabaning o'z-o'zini anglash, baholash va boshqarish kabi tarkibiy qismlarni rivojlantirish va turli ta'lim muassasalarida ishlashga tayyorlash sanalsada, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari asoslarini o'rganish vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

-aniq pedagogik hamda ishlab chiqarish muammoli vaziyatlarda masalani ajratib olish va ularni hal qilish usuli sifatida pedagogik va texnik-texnologik tafakkurni rivojlantirish;

-bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining pedagogik-shaxsiy faoliyati asosi sifatida pedagogik, umumkasbiy va ixtisoslikka oid bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga erishish;

-bo'lajak kasbiy faoliyat individual metodining asosi sifatida, o'quv- pedagogik va ishlab chiqarish harakatlarining reproduktiv va ijodiy usullarini shakllantirish;

-muhim kasbiy-pedagogik sifatlarini rivojlantirish (hamdardlik, bolalarni sevish va boshqalar), kasbiy va shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini yuzaga keltirish hisoblanadi.

XULOSA

Talabalarning fanlardan mustaqil ta'limini tashkil etishda, avvalo, ularning mustaqil bilim olishlari uchun ularning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hamda ta'limiy yondashuvlarni hisobga olish zarur. Talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida bilim, ko'nikmalarini shakllantirishga kreativ yondashuvning mohiyati shundan iboratki, talablarni bilimlarni chuqurroq egallashga, mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. – СПб.: СПГУТД, 2006.
2. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2006. – 46 b.

3. Аметов, Б. Т. (2021). Возникновение И Распространение Ударной Волны В Твердом Теле. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 42-44
4. Zamira, E., Xalima, D., & Kizlargul, K. (2021). Integrated approach in teaching a foreign language. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 448-452
5. Furkatovna, S. A., Jurabekovna, T. M., & Mамurjonovna, T. P. (2021). Gender aspects of politeness strategy in speech acts. *Linguistics and Culture Review*, 5(S2), 1488-1496.
6. Кухарчик, П. Д. Научно-методические основы разработки и внедрения современных образовательных технологий в систему профессиональной подготовки педагогических кадров: учеб.-метод. пособие / П. Д. Кухарчик [и др.]. Минск : БГПУ, 2006
7. Монахов В.М. Введение в теорию педагогических технологий. Монография, г. Волгоград «Перемена» 2006.
8. Nozima, K. (2023). МУСТАҚИЛЛИК ШАРОИТИДА ТАЛАБАЛАР БИЛАН ОЛИБ БОРИЛАДИГАН АҚЛИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК ВА БАЙНАЛМИНАЛ АХЛОҚИЙ, ҒОЯВИЙ-СИЁСИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ОШИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ ВАЗИФАЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 36(36). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10158
9. Кадирова Н. А., Розикова П. Инсон Психологиясида Рангларнинг Рухий Таъсири // *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 341-346.
10. MB S. et al. The Significance Of Decorative-Applied Art In The Educational Process Of Higher Education // *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*. – 2021. – Т. 27. – №. 1. – С. 3162-3171
11. Kadirov O. M., Kadirova N. A., Kahhorova M. METHODS OF USING FOLK TALES AND FOLKLORE ABOUT CRAFTS IN THE ORIENTATION OF YOUNG PEOPLE TO THE PROFESSION // *E-Conference Globe*. – 2021. – С. 74-77.
12. Kadirov A. YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHDA MILLIY QADRIYAT VA AN‘ANALARNING O‘RNI // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*. – 2022. – Т. 26. – №. 26.
13. Kadirova N. ОСОБЕННОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ПЛАТЯ ЖИТЕЛЬНИЦ БУХАРЫ В XIX ВЕКЕ КАК ЭЛЕМЕНТ ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ РЕГИОНА // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*. – 2022. – Т. 26. – №. 26.
14. Abdumalikovna K. G., Arifovna K. N. History and Stages of Development of Uzbek Folk Arts.
15. Кадырова Н. А. УЗБЕКСКАЯ НАЦИОНАЛЬНАЯ ДЕТСКАЯ ОДЕЖДА И ЕЁ ЭВОЛЮЦИЯ // *Электронный периодический рецензируемый научный журнал «SCIArticle. RU»*. – 2016. – С. 52.
16. Nozima K. Yoshlarni mahoratiga qarab kasbga yo ‘naltirishda ajdodlarimizdan qolgan amaliy hunarmandchilik sirlarini yetkazib berish // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*. – 2023. – Т. 38. – №. 38.

17. Nozima K. МУСТАҚИЛЛИК ШАРОИТИДА ТАЛАБАЛАР БИЛАН ОЛИБ БОРИЛАДИГАН АҚЛИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК ВА БАЙНАЛМИНАЛ АХЛОҚИЙ, ҒОЯВИЙ-СИЁСИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ОШИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ ВАЗИФАЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 36. – №. 36.
18. Nozima K. YOSHLARNI MILLIY AN’ANALAR VA QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 40. – №. 40.